

“CartaMe” mobil ilovasidan foydalanish bo’yicha jismoniy shaxslar uchun

OMMAVIY SHARTNOMA

Toshkent shahri «20» dekabr 2022 yil

"WinUnion Corp." mas'uliyati cheklangan jamiyati (EIN(IRS) 87-4531262), keyingi o'rinlarda "Mualliflik huquqi egasi" deb yuritiladi, ushbu Ommaviy shartnomani O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasiga asosan (keyingi o'rinlarda Fuqarolik kodeksi) ommaviy oferta tarzida jismoniy shaxs - "CartaMe" mobil ilovasining foydalanuvchisiga (keyingi o'rinlarda Foydalanuvchi deb yuritiladi) e'lon qiladi.

Mualliflik huquq egasi "CartaMe" ilovasining foydalanish va o'tkazish bo'yicha eksklyuziv mulkiy huquqlarning egasidir.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. **"CartaMe" ilovasi** - Android va iOS operatsion tizimlari uchun mobil qurilmalarda (telefon, smartfon, planshet va boshqalar) (keyingi o'rinlarda Mobil qurilma deb yuritiladi) o'rnatilgan va o'z foydalanuvchisiga Hamkorlarning sodiqlik dasturlarida ishtirok etish imkonini beruvchi "CartaMe" dasturi.

1.2. **Sodiqlik dasturi bo'yicha hamkor** - mualliflik huquqi egasining universal "CartaMe" sodiqlik dasturida (keyingi o'rinlarda Sodiqlik dasturi deb yuritiladi) ishtirok etish huquqi to'g'risida shartnoma tuzgan tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor. Foydalanuvchilarning sodiqlik dasturida ishtirok etish shartlari ushbu Shartnomaning №1- ilovasida keltirilgan.

1.3. **"CartaMe" plastik kartasi** - shaxsiy shtrix-kod/QR bosilgan shaxsiy plastik karta (keyingi o'rinlarda - Shaxsiy shtrix-kod/QR). Bu bank to'lov kartasi emas va Mualliflik huquqi egasi tomonidan foydalanuvchilarga haq (to'lov) evaziga taqdim etiladi.

1.4. **Karta** - "CartaMe" ilovasi hamkor banki tomonidan foydalanuvchi uchun chiqarilgan bank to'lov kartasi.

1.5. **Shaxsiy shtrix-kod/QR** - "CartaMe" ilovasi tomonidan yaratilgan noyob identifikator, u "CartaMe" ilovasida ro'yxatdan o'tishni tugatgandan so'ng Foydalanuvchiga beriladi. Identifikator QR kodi yoki CODE 128 formatidagi shtrix-kod sifatida ko'rsatiladigan 21 ta raqamli belgilardan iborat.

1.6. **Sayt** - Mualliflik huquqi egasining Internetdagi sayt manzili

1.7. **Foydalanuvchi** - "CartaMe" ilovasidan foydalanuvchi va ushbu Jamoat shartnomasi shartlarini qabul qiluvchi jismoniy shaxs.

1.8. **Egasi** - Hamkor bank bilan o'zi tomonidan tuzilgan, bank to'lov kartasidan foydalanishda foydalanish imkoniyati taqdim etiladigan joriy (hisob-kitob) bank hisobvarag'i shartnomasi asosida Kartadan foydalanadigan Foydalanuvchi.

1.9. **Ro'yxatdan o'tish** - bu Foydalanuvchining "CartaMe" ilovasidan funksional maqsadiga muvofiq undan keyingi foydalanishi uchun foydalanuvchining autentifikatsiya ma'lumotlarini (mobil telefon raqami, parol) saqlash uchun zarur bo'lgan tartib.

1.10. **Tovar** - Foydalanuvchi tomonidan Sodiqlik dasturi bo'yicha hamkordan sotib olinadigan yoki olinadigan har qanday mahsulot, ish, xizmat.

1.11. **Jarayon** - Foydalanuvchi tomonidan Sodiqlik dasturi bo'yicha hamkordan tovarni sotib olish yoki olish holati.

1.12. **Hamkor bank** - Mualliflik huquqi egasi bilan tuzilgan shartnoma asosida foydalanuvchilar uchun kartalarni chiqaradigan bank.

1.13. **Aksiya** - sodiqlik dasturi bo'yicha hamkordan tovarlarni sotishga yordam beruvchi tadbir.

1.14. **Kupon** - sodiqlik dasturi bo'yicha hamkorning marketing faoliyatida Fydalanuvchi ishtirok etishi uchun, unga sodiqlik dasturi bo'yicha hamkorning tovarlari va xizmatlariga chegirma olish imkonini beruvchi, ramzlar va belgilarning kombinatsiyasi sifatidagi ma'lumot.

2. SHARTNOMA MAVZUSI

2.1. Mualliflik huquq egasi oddiy (eksklyuziv bo'lmagan) litsenziya shartlariga ko'ra, foydalanuvchiga "CartaMe" ilovasidan ushbu Shartnoma shartlari va Sodiqlik dasturi bo'yicha hamkorlarning amaldagi shartlari asosida jarayonlarni amalga oshirish uchun "CartaMe" ilovasidan boshqalarga o'tkazish imkonisiz bepul foydalanish huquqni beradi.

3. SHARTNOMANING TUZILISHI VA AMAL QILINISHI

3.1. Mualliflik huquqi egasi va Foydalanuvchi (keyingi o'rinlarda Tomonlar deb yuritiladi) o'rtasidagi ushbu Shartnoma foydalanuvchi tomonidan ushbu Shartnomani to'liq va so'zsiz qabul qilinishi (aksept) bilan tuziladi.

3.2. Foydalanuvchi tomonidan ushbu Shartnomani qabul qilish "CartaMe" ilovasini foydalanuvchining mobil qurilmasiga o'rnatish va Ro'yxatdan o'tish tartibi bajarilishi asosida amalga oshiriladi.

3.3. Foydalanuvchi ushbu Shartnoma shartlari asosida "CartaMe" ilovasidan foydalanadi. Agar Foydalanuvchi ushbu Shartnoma shartlarini to'liq qabul qilmasa, Foydalanuvchi "CartaMe" ilovasidan foydalanish huquqiga ega emas. "CartaMe" ilovasidan ushbu Shartnoma shartlarini buzgan holda yoki bajarmagan holda foydalanish taqiqlanadi.

3.4. Ushbu Shartnomani qabul qilish orqali Foydalanuvchi quyidagilarga rozilik beradi:

3.4.1. Foydalanuvchi tomonidan "CartaMe" ilovasida mustaqil ravishda kiritilgan shaxsiy ma'lumotlarni (familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa), mobil telefon raqami, tug'ilgan sanasi, jinsi, yashash manzili, shu jumladan mamlakat va shahar) to'plash, qidirish, qayta ishlash, saqlash, tekshirish, foydalanish va boshqa harakatlarni amalga oshirish, jumladan Sodqilik dasturi bo'yicha hamkorlar va boshqa uchinchi shaxslarga taqdim etish, ular tomonidan qayta ishlash, to'plash, saqlash, tekshirish va foydalanish uchun;

3.4.2. "CartaMe" ilovasida ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga (SMS xabarlar, push-bildirishnomalar va boshqalar) va (yoki) elektron pochta manziliga sodiqlik dasturi bo'yicha hamkorlardan va (yoki) uchinchi shaxslardan tovarlar, xizmatlar va boshqa dasturlar, aksiyalar, kuponlar, tadbirlar to'g'risida reklama va (yoki) axborot xabarlarini olish uchun;

3.4.3. Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini uchinchi shaxs foydasiga o'tkazish, bir vaqtning o'zida ushbu Shartnoma bo'yicha mualliflik huquqi egasiga tegishli huquqlarni uchinchi shaxs foydasiga o'tkazish sharti bilan.

Foydalanuvchi mualliflik huquq egasi tomonidan Hamkorlar va boshqa shaxslarga Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etilishida Hamkorlar va boshqa shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan (bajariladigan, ko'rsatiladigan) tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqida Foydalanuvchiga elektron va pochta aloqasi ma'lumotnomasi va reklama ma'lumotlarini yetkazilishi, xususan, SMS-xabarlar, push-bildirishnomalar va (yoki) boshqa xabarlar, shuningdek telefon orqali muloqot qilinishi maqsadida ham amalga oshirilishiga rozilik beradi.

3.4.4. shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish va zarurat bo'lganda ularni jamlash, qidirish, qayta ishlash, to'plash va saqlash uchun.

3.5. Ushbu Shartnoma "CartaMe" ilovasining barcha keyingi yangilanishlari (yangi versiyalari) uchun amal qiladi. "CartaMe" ilovasining yangilanishini (yangi versiyasini) o'rnatish, agar CartaMe ilovasining yangi versiyasini yangilash (o'rnatish) boshqa shartnoma tuzilishini talab qilmasa, ushbu ommaviy shartnoma shartlarini qabul qilinishini anglatadi.

4. "CARTAME" ILOVASIDAN FOYDALANISH SHARTLARI

4.1. Foydalanuvchi "CartaMe" ilovasidan belgilangan funktsional maqsadi uchun foydalanadi. Foydalanuvchi "CartaMe" ilovasini cheklanmagan miqdordagi Mobil qurilmalarga o'rnatish huquqiga ega.

4.2. Foydalanuvchi "CartaMe" ilovasining ob'ekt kodini o'zgartirish, dekompilyatsiya qilish, qisimlarga ajratish, shifrini buzish va (yoki) boshqa harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega emas. "CartaMe" ilovasining dastlabki matnini chiqarib olish va (yoki) "CartaMe" ilovasida qo'llaniladigan algoritmlari to'g'risida ma'lumot olish, "CartaMe" ilovasidan foydalangan holda hosilaviy namunalar yaratish, shuningdek, "CartaMe" ilovasidan funktsional maqsaddan boshqa bo'lgan foydalanishni amalga oshirish (amalga oshirishni ruxsat berish) huquqiga ega emas.

4.3. "CartaMe" ilovasidan foydalanish uchun Foydalanuvchi Ro'yxatdan o'tish jarayonini bajarishi kerak. Ro'yxatdan o'tish uchun foydalanuvchi quyidagi harakatlar ketma-ketligini bajarishi kerak:

4.3.1. mobil qurilmada "CartaMe" ilovasini ishga tushirish;

4.3.2. Ro'yxatdan o'tish formasiga mobil telefon raqamini kiritish;

4.3.3. qabul qilingan SMS kod yordamida mobil telefon raqamini tasdiqlash;

4.3.4. "CartaMe" ilovasiga kirishda foydalaniladigan parol yaratish;

4.3.5. ushbu Shartnoma shartlarini qabul qilish.

4.4. Foydalanuvchi tomonidan "CartaMe" ilovasidan foydalangan holda amalga oshiriladigan barcha Jarayonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.5. Mualliflik huquqi egasi tomonidan "CartaMe" ilovasidan foydalangan holda amalga oshiriladigan jarayonlar uchun Foydalanuvchidan hech qanday haq olinmaydi.

4.6. Mualliflik huquqi egasi foydalanuvchiga "CartaMe" ilovasi haqida kerakli ma'lumotlarni veb-saytda yoki "CartaMe" ilovasida joylashtirish orqali taqdim etadi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Mualliflik huquq egasi quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Ushbu Shartnomani istalgan vaqtda o'zgartirish yoki to'ldirish, shu jumladan uning yangi versiyasini joylashtirish (e'lon qilish). Shartnomaning yangi versiyasi veb-saytda ham joylashtiriladi;

5.1.2. Foydalanuvchining oldindan roziligsiz "CartaMe" ilovasiga, uning funksional xususiyatlariga va undan foydalanish shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

5.1.3. Ishda turli xil xatolar, nosozliklar yoki boshqa muammolar aniqlanganda, shuningdek, profilaktika ishlari olib borilganda, uchinchi shaxslarning "CartaMe" ilovasiga ruxsatsiz kirishining oldini olish maqsadida "CartaMe" ilovasining to'liq yoki ma'lum bir operatsion tizim bilan ma'lum bir versiyasining ishini to'xtatib qo'yish;

5.1.4. Foydalanuvchining "CartaMe" ilovasiga kirishini cheklash yoki bloklash;

5.1.5. "CartaMe" ilovasi orqali Sodiqlik dasturi bo'yicha ayrim hamkorlari bilan operatsiyalarni amalga oshirishda Foydalanuvchining kirishini cheklash yoki bloklash;

5.1.6. Axborot va boshqa xabarlarni yuborish uchun Foydalanuvchi ma'lumotlaridan (elektron pochta, mobil telefon raqami va boshqalar) foydalanish;

5.1.7. Shartnoma shartlarini bajarishni ma'lumotni veb-saytga joylagan holda bir tomonlama rad etish.

5.2. Mualliflik huquq egasi quyidagilarga majbur:

5.2.1 Foydalanuvchiga ushbu Shartnomaga muvofiq "CartaMe" ilovasi orqali jarayonlarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha tartib nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5.3. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

5.3.1. "CartaMe" ilovasi orqali jarayonlarni amalga oshirish.

5.3.2. "CartaMe" ilovasi orqali "CartaMe" plastik kartasiga va (yoki) kartaga buyurtma berish.

5.4. Foydalanuvchi majburiydir:

5.4.1. Shartnoma bilan tanishish, uning shartlariga rioya qilish. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini, shu jumladan, xalqaro huquqni, shu jumladan intellektual mulk, mualliflik huquqi va (yoki) turdosh huquqlar sohasidagi qonun hujjatlarini buzuvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, shuningdek "CartaMe" ilovasining ishlashini buzilishiga sabab bo'luvchi harakatlarni qilmaslik;

5.4.2. Mualliflik huquqi egasi tomonidan Shartnomaga, shuningdek, "CartaMe" ilovasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni mustaqil ravishda nazorat qilish;

5.4.3. "CartaMe" ilovasidan foydalanishda, kirish va jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kirish ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash, bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga (shu jumladan do'stlar, tanishlar, qarindoshlar va boshqalar) oshkor qilmaslik;

6. TOMONLARNING MAS'ULIYATLARI

6.1. Tomonlar ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Mualliflik huquqi egasi "CartaMe" ilovasining ishlashi paytida kechikishlar, uzilishlar, yo'qotishlar, ma'lumotlarni uzatish yoki ulanishdagi muammolar uchun javobgar emas.

6.3. Foydalanuvchi quyidagilar uchun javobgardir:

6.3.1. "CartaMe" ilovasiga kirish va jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi, shuningdek, bunday ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash talablariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun;

6.3.2. uchinchi shaxslarning "CartaMe" ilovasidan foydalanishga Foydalanuvchining niyati yoki beparvoligi natijasida noqonuniy kirishi va bunday noqonuniy kirish natijasida yuzaga kelgan barcha oqibatlar uchun.

6.4. Mualliflik huquqi egasi Foydalanuvchining va (yoki) uchinchi shaxslarning har qanday yo'qotishlari va (yoki) yo'qotilgan foydalari, "CartaMe" ilovasidan foydalanish yoki foydalana olmaslik natijasida ma'lumotlarning yo'qolishi uchun javobgar emas. Shuningdek, mualliflik huquqi egasi quyidagilar uchun javobgar emas:

6.4.1. Foydalanuvchining maxfiy ma'lumotlarini (shu jumladan kirish ma'lumotlarini) o'g'irlash, buzish yoki yo'qotish va buning oqibatlari;

6.4.2. uchinchi shaxslar tomonidan Foydalanuvchining "CartaMe" ilovasiga kirish va jarayonlarni amalga oshirishi uchun talab etiladigan kirish ma'lumotlari yoki boshqa ma'lumotlaridan foydalangan holda "CartaMe" ilovasiga kirishi natijasida yetkazilgan yo'qotishlar, shuningdek ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda Foydalanuvchiga etkazilgan har qanday yo'qotishlar;

6.4.3. Foydalanuvchi yoki uchinchi shaxslar tomonidan foydalanuvchining "CartaMe" ilovasiga kirish ma'lumotlaridan foydalangan holda, Foydalanuvchining xabardorligi bilan yoki xabardor bo'lmagan holda amalga oshirilgan har qanday harakatlar yoki tashabbuslar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday turdagi oqibatlar.

6.5. Shartnoma kuchga kirgandan keyin oldindan ko'rish va oldini olish mumkin bo'lmagan favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelgan fors-major holatlarida Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar.

7. NIZOLARNI HAL QILISH

7.1. Tomonlar tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlarning haqiqiyliigi to'g'risida nizolar yuzaga kelgan taqdirda, isbotlash yuki harakatlarning haqiqiyliigiga rozi bo'lmagan Tomonga yuklanadi.

7.2. Nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha da'vo tartibi Tomonlar uchun majburiydir.

7.3. Da'vo xatlari Foydalanuvchi tomonidan ushbu Shartnomaning 8-moddasida ko'rsatilgan manzil bo'yicha Mualliflik huquqi egasiga topshirilganligi to'g'risida bildirishnoma bilan buyurtma xat orqali yuboriladi.

7.4. Da'vo xatini ko'rib chiqish muddati adresat tomonidan olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kunni tashkil etadi.

7.5. Agar Tomonlar muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishmagan bo'lsa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli yurisdiksiya sudiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

8. MUALLIFLIK HUQUQI EGASI MA'LUMOTLARI

WinUnion Corp.

Yuridik manzili: 16192 Coastal Highway, Lewes, Delaware 19958, County of Sussex, USA

Pochta manzili: 440 N BARRANCA AVE #8839 COVINA, CA 91723

X/R: 3251 6613 1792

Bank: Bank of America, N.A.

SWIFT: BOFAUS3N

ACH Routing Number: 121000358

© 2022 All rights reserved.

“CartaMe” mobil ilovasidan foydalanish bo'yicha jismoniy shaxslar uchun

OMMAVIY SHARTNOMA

uchun №1-sonli ILOVA

Foydalanuvchilarning "CartaMe" sodiqlik dasturida ishtirok etish shartlari

1. Imtiyozlar (doimiy chegirma, jamlangan chegirma va h.k.) Foydalanuvchi tomonidan “CartaMe” ilovasida Shaxsiy shtrix-kod/QR ko'rsatilishi va (yoki) “CartaMe” plastik kartasini taqdim etishi va (yoki) shaxsiy shtrix-kod/QR bosilgan Karta taqdim etilishi sharti bilan Sodiqlik dasturi bo'yicha hamkorlar tomonidan taqdim etiladi.
2. Foydalanuvchilar va Karta egalariga imtiyozlar berish shartlari (doimiy chegirma, jamlangan chegirma va boshqalar) Sodiqlik dasturi bo'yicha har bir hamkor tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va u tomonidan Karta egalari va Foydalanuvchilarni avvaldan ogohlantirmasdan o'zgartirilishi mumkin.
3. Sodiqlik dasturi bo'yicha hamkor Foydalanuvchilarga va (yoki) Karta egalariga imtiyozlar berishni (doimiy chegirma, jamlangan chegirma va h.k.) avvaldan hech qanday maxsus ogohlantirishsiz bir tomonlama tugatishga haqli.
4. Shaxsiy shtrix-kod/QR-ning texnik nosozligi yoki boshqa sabablarga ko'ra Foydalanuvchi yoki Karta egasi Sodiqlik dasturi bo'yicha hamkordan tegishli imtiyozni (doimiy chegirma, jamlangan chegirma va h.k.) olmagan taqdirda, Foydalanuvchi va (yoki) Karta egasi Sodiqlik dasturi shartlari Hamkor tomonidan buzganligi to'g'risida Mualliflik huququ egasiga internetdagi www.cartame.uz veb-saytida va (yoki) “CartaMe” mobil ilovasida elektron xabarni yo'llash, yoki Sodiqlik dasturini qo'llab-quvvatlash xizmatiga qo'ng'iroq qilib ma'lum qilish huquqiga ega.

5. Mualliflik huquq egasi internetdagi www.cartame.uz veb-saytida va "CartaMe" mobil ilovasida Foydalanuvchilar va Karta egalarini 30 (o'ttiz) kalendar kun avval xabardor qilgan holda, Sodiqlik dasturini amalga oshirishni to'xtatib turish yoki tugatish huquqiga ega.

6. Ushbu №1-sonli ilova "CartaMe" mobil ilovasidan foydalanish bo'yicha jismoniy shaxslar uchun Ommaviy Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.